

Innovatsiyalar asosida kimyo sanoatida ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish

// 03 October 2025 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/innovatsiyalar-asosida-kimyo-sanoatida-ishlab-chiqarish-salo>



Bugungi kunda kimyo sanoatida ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish hamda mahalliyashtirish imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu orqali nafaqat import o'rnini bosuvchi, balki narx va sifat jihatdan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va tashqi bozorlarga eksport qilishga sharoit yaratiladi.



"O'zkimyosanoat" AJning Innovatsiya va yangi texnologiyalarni joriy etish bo'limi hamda Mahalliyashtirish, kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish va importni maqbullashtirish bo'limi tomonidan yangi innovatsion loyihalarni joriy qilish bo'yicha kimyo korxonalarining salohiyatini o'rganish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.



Jumladan, "Navoiyazot" Ajda mutaxassislar ishtirokida amalga oshirilgan tahlillar korxonaning innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda muhim o'rin tutadi. Ushbu tahlillar yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, mavjud hajmlarni kengaytirish hamda ilg'or texnologiyalarni joriy etish uchun maqbul yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Mazkur jarayonlar kimyo sanoatida innovatsion va kreativ yondashuvlarni kuchaytirish, ichki bozor ehtiyojini qondirish bilan birga, tashqi bozorlarda ham raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati